

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Rayxon Rasulova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrası, p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini oshirishda integrativ yondashuvning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Matn yaratish, innovatsion texnologiyalar, asar tahlili, integratsiya, ta’lim sifati, roman, drama, tahlil.

Shiddatli va keskin o‘zgarishlar og‘ushida yashayotgan ekanmiz, milliyligimizni va ma’naviyatimizni asrab qolish bugungi kunning ezgu maqsadidir. Ayniqsa, shakllanib kelayotgan yosh avlodni zamon bilan hamnafas turib milliy ruhda tarbiyalash, qadriyatlarimizni singdirib borish bugun har qachongidan ham o‘ta muhim hisoblanadi. Shu maqsadda, ta’limga e’tibor, uning sifatini oshirish va buning natijasida o‘z kelayotgan yosh avlodga sifatli, har tomonlama mukammal bilim berish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi № PF-158-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalar aynan shu masalalarni ijobiy hal qilish yo‘lidagi asosiy islohotlardan biridir. Ushbu farmonda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish maqsadida ta’lim tizimi islohotlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda yosh avlodning bilim olishi va ta’lim samaradorligini oshirish uchun chora - tadbirlar ishlab chiqilgan. O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish maqsadida kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish, har yili 100 ta eng yaxshi badiiy asar hamda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 50 ta badiiy kitoblar yaratish, “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” ko‘p jildlik, “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” 100 jildligini o‘zbek tilida nashr qilish, 40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda yosh avlod qalbiga adabiyotni oshno qilish, kitob mutolaasiga jalb etish o‘ta muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib bormoqda. Bunday jiddiy vaziyatda adabiyot o‘qituvchilaridan kognitivlik, kreativlik, kasbga yuksak sadoqat va zamon bilan hamnafaslik yuksak darajada talab etiladi. Adabiyot darslaridagi asosiy vazifa qaysi yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘quvchilarni badiiy asar o‘qishga, o‘qiganini tushunishga, tushungani haqida mulohaza yuritishga o‘rgatishdan iboratdir. Badiiy asar o‘qish o‘quvchilarga har

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jihtadan g‘oyat muhim yumush sanaladi. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirishda ham kitob o‘qishning ahamiyati yuksak. Shuning uchun ham o‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyalardan o‘rinli va unumli foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi. Ta’lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha bo‘lib, ushbu ta’riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. Xulosa qilib aytganda adabiy ta’limda atrof-olam, borliq bilan munosabat yaxlitligini o‘zida aks ettirgandagina o‘quvchilarni haqiqiy kitobxon darajasiga ko‘tarish mumkin. Har bir darsda, har bir kichik matndan to badiiy asar tahliligacha integrativ yondashgan tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asar mazmun-mohiyatini har bir o‘quvchi tushunishi, qahramonlarning tuyg‘ularini his qilishi, asar ichida yaratilgan hayotda yashashi, eng muhimi, asardagi voqealardan o‘zi uchun xulosa chiqara olishi yoki ularga nisbatan tanqidiy fikrlay olishi uchun integratsion yondashuv borliqni his etish samaradorligini oshiradi. Buning uchun, avvalo, o‘quvchini asar mohiyatiga yaqinlashtirish, uni his etishga yo‘naltirish zarur bo‘ladi. Asarni tahlil etish orqali uni idrok etolgan o‘quvchida, nafaqat kitob o‘qish, balki kashhf etish, kreativ yondashib ijod etish ishtiyoqi paydo bo‘lib boradi. Natijada, ular tomondan mustaqil ravishda matn yaratish ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda foydalanilgan innovatsion texnologiyalardan *tahliliy, ijodiy va klaster modulini* bajarish faoliyati buning yaqqol dalilidir.



Bu modullar o‘z navbatida bajariladigan bir qancha elementlardan tashkil topadi. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatini muvaffaqiyatli

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashni talab qiluvchi quyidagi elementlarni bajarish vazifalarini o‘z ichiga olgan ishlar taklif qilindi:

- matn turlarini integratsion bog‘lash;
- matnning asosiy g‘oyasini aniqlash;
- mavzu yoki matnning asosiy g‘oyasini aks ettiruvchi sarlavha tanlash;
- matn mavzusini taqdim qilingan matnning ma’no doirasiga muvofiqligini va uning ko‘lamini mikromavzularni tanlash orqali aniqlashtirish;
- rejalashtirilgan matnning asosiy g‘oyasini shakllantirish;
- rejalashtirilgan matn tarkibini yaratish;
- mavzu va g‘oyaga muvofiq reja, tayanch va kalit so‘zlar asosida, yaxlitlik, izchillik va nisbiy to‘liqlik talablari asosida matn yaratish;
- matnni mazmuni, tarkibi va uslubiy vazifasiga muvofiq xatboshilarga ajratish;
- matn mavzusiga muvofiq klaster asosida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish.

Ushbu jarayonda asarning mazmun-mohiyatini tushunish va qayta yaratish uchun interfaol metodlardan unumli foydalanish mumkin.

Bunday metodlar yordamida biz o‘quvchilarning ongli idrok etish tafakkurini hamda taqqoslash, qiyoslash ko‘nikmalarini rivojlantiramiz. Bu esa ularda kreativlikni hamda o‘z fikrini mustaqil bildira olish va uni himoya qilish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning ma’naviyati oshishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyot fanini va u orqali kitob o‘qishga o‘rgatish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Zero, ma’nan yetuk o‘quvchilar kelajak bunyodkorlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 dagi “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Raykhan Rasulova, An integrative approach to the analysis of a work of art *European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)* <http://inovatus.es/index.php/ejine> Volume 3 | Issue 12 | Dec-2023 ISSN: 2795-8612 | Page 113-116
3. Rasulova R.B. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasisining ahamiyati (7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi) MUG‘ALLIM HAM UZLUKSIZ BILIMLENDIRIO‘. Ilmiy-metodikaliq jurnal № 6/1 2021. B. 8-12